

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA ILMIY DARAJALARINI
BERUVCHI DSc.21/2025.27.12.F.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SHAPSANOVA NODIRA BERDIKULOVNA

JAMIYATDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY-TARBIYAVIY OMILLARNING O'RNI

09.00.08 - Ma'naviy tarbiya

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UDK: 323/327(091) (575.1)

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in
philosophical sciences**

Shapsanova Nodira Berdikulovna

Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda
ma'naviy-tarbiyaviy omillarning
o'rni.....3

Шапсанова Нодира Бердикуловна

Роль духовно-воспитательных факторов в формировании и развитии
идеологического иммунитета в
обществе.....25

Shapsanova Nodira Berdikulovna

The role of spiritual and educational factors in the formation and
development of ideological immunity and
society.....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published

works.....53

RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI HUZURIDAGI
IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTIDA ILMIY DARAJALARINI
BERUVCHI DSc.21/2025.27.12.F.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

IJTIMOIY-MA'NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

SHAPSANOVA NODIRA BERDIKULOVNA

JAMIYATDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH VA
RIVOJLANTIRISHDA MA'NAVIY-TARBIYAVIY OMILLARNING O'RNI

09.00.08 - Ma'naviy tarbiya

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/Fal1265 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy - ma'naviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy - ma'naviy tadqiqotlar instituti veb-sahifasida (oyina.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www. ziyonet .uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Musayev Odil Raxmatovich,
Falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muxtarov Azamat Muxtarovich,
Falsafa fanlari doktori, professor

Norqulov Do'stmurod Toshpo'latovich,
Falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutida ilmiy darajalarini beruvchi DSc.21/2025.27.12.F.01.01 - raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 24-iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Bobur ko'chasi, 9-uy, 3-qavat, 307-xona (anjumanlar zali) Tel.: (998) 55-503-41-90);

Dissertatsiya bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (47-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Bobur ko'chasi, 9-uy, 3-qavat, 307-xona (anjumanlar zali) Tel.: (998) 55-503-41-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 16-iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil 16-iyuldagi № 35-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Mavkulov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, tarix
fanlari doktori, professor.

I.A. Suvanov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc),
katta ilmiy xodim.

H.A.Ahmedov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, siyosiy
fanlar doktori, professor.

KIRISH (Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda jamiyatning barqaror rivojlanishi, milliy g'oya va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'rifatli avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga, insoniyat istiqbolini belgilashda universallikka da'vogarlik qilayotgan, radikal va transmilliy ko'rinishga ega g'oya va qarashlar, an'anaviy va noan'anaviy tahdidlar dunyoning mafkuraviy manzarasi mazmunini belgilab berishda ustuvorlikka intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirish masalasi katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Bu jarayonda jamiyatning turli g'oyaviy xurujlarga qarshi chidamli bo'lishi, o'z milliy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarini anglab yetishi, ma'naviy-tarbiyaviy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasiga bo'layotgan salbiy ta'sirlariga qarshi choralarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarurati vujudga kelmoqda.

Dunyoda globallashuv jarayonining mazmun-mohiyati, uning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan ta'siri hamda uning oqibatlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, unga nisbatan turli qarashlarni umumlashtirish borasida tegishli tadqiqotlar olib borilishi natijasida bir qancha ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqildi. Hozirgi davrda ilmiy markazlarda millatlarning o'zligidan begonalashuviga sabab bo'layotgan omillar, ularning negizlari, milliy-ma'naviy taraqqiyotda yuzaga kelayotgan inqirozlarning yoshlar ma'naviy-axloqiy hayotiga salbiy ta'sirini oldini olish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Bu tadqiqotlarda barqaror taraqqiyotga erishishning yo'li sifatida mafkuraviy profilaktikasining yo'nalishlaridan umumiy foydalanishning ahamiyatini ochib berilmoqda. Shuningdek, mafkuraviy tahdidlarga qarshi individual ong profilaktikasining mexanizmi sifatida ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy qilishga oid ilmiy ishlarning samaradorligi erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali mexanizmlarini shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini ijobiy tomonga o'zgartirishni ma'naviy va mafkuraviy qadriyatlar uyg'unligida amalga oshirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. "Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermaslik darkor. Mana, gap nima haqida ketyapti!"¹, deya aytilgan e'tirof orqali ham anglash mumkin. Shu nuqtayi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyun kuni Toshkent shahrida

nazardan, "Yangi O'zbekiston-2030" strategiyasida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar" ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu bois, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan yoshlarni tarbiyalash vazifasi bilan chambarchas bog'liqligi hamda mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadigan shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ma'naviy-tarbiyaviy omillarning o'rnini tadqiq etish, ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lgan taklif, tavsiya va ilmiy xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, 2018-yil 30-iyuldagi O'RQ-489-son "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi, 2025-yil 25-fevraldagi O'RQ-1037-son "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vijdon erkinligini ta'minlash va davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 23-mart 5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 340-son "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori va mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida², O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"³ Farmoni, sohaga tegishli bo'lgan qarorlari hamda asarlarida ilgari surilgan ma'naviyatni yuksaltirish, yangi O'zbekistonning fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida inson omilini ustuvor qadriyat sifatida ko'rish tamoyillari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shaxs ijtimoiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, iqtisodiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri globallashtirish jarayoni bilan bog'liq holda alohida mustaqil mavzu sifatida o'rganilgan emas. Ammo

"Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliqini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi: <http://uza.uz/oz/politiss/>.

² Karimov I. Asarlar to'plami. Toshkent. 1-24. – Toshkent: O'zbekiston. 1996-2015.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

inson ongi, dunyoqarashi va axloqiga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlar masalasi butun Sharqu G'arb mutafakkirlarining doimiy diqqat-markazida turgan. Ularni umumlashtirgan holda, bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim mutafakkirlarini kiritish mumkin. Jamiyatda insonlarni barqaror yashashlari, tinch va farovon hayot kechirishlari uchun ular o'rtasida munosabatlar samimiy, iliq bo'lish, dushmanlik esa, taraqqiyotga nisbatan katta xavf ekanligini qadimgi Xitoy mutafakkirlari Konfutsiy, yunon faylasuflari Platon, Aristotel, Qadimgi Rim mutafakkiri Siseronlar ilgari surganlar⁴.

Ikkinchi guruhga IX-XII asrlarda yashagan Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Nizomulmulk kabilarni kiritish mumkin⁵. Ular o'z asarlarida yaxshilik va yomonlik, axloqlilik va ahloqsizlikning mohiyati, ular o'rtasidagi ziddiyatlar va ularning yuzaga kelish manbalari hamda jamiyatda va insonlararo munosabatlarning adolat, o'zaro oqibat asosida qurishning ahamiyati, xalq merosi va ma'naviyatini asrash haqidagi g'oyalarni ilgari surganlar.

Uchinchi guruhga G'arbda Uyg'onish va yangi davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlar N.Makiavelli (1469-1527), T.Gobbs (1588-1679), J.Lokk, J.J.Russo (1712-1778) va boshqalarni kiritish mumkin⁶. Garchand ular aynan shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri haqida fikr bildirmagan bo'lsalar ham, uni davlatning shakllanishiga sabab bo'lgan omillar, uni boshqarishda mavjud bo'lgan ziddiyatlar, ularni hal etishda qo'llanish zarur bo'lgan tadbirlar haqida bildirgan fikrlari bilan uyg'unlashgan deb qarash mumkin.

To'rtinchi guruhga Z.Bjezinskiy, E.Toffler, F.Fukuyama, S.Xantington, A.Dj.Toynbi, P.J.Byukenen, J.Koleman kabilarni kiritish mumkin⁷. Bu mualliflar fikrlarining mavzuimizga taalluqli jihati shundaki: a) ularni fikrlaridan ma'lum bo'layotgan muhim masala – bugun dunyoning ziddiyatlar girdobida hayot kechirayotgan, uning turli tahdidlarga muhtalo bo'lgani; b) bu tahdidlar negizida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri va insonlarning ma'naviy

⁴ Konfutsiy. Lun Yuy. Perevod Yu. Krikova. – VKN. Drevnekitayskaya filosofiya. Sobraniye tekstov. 21.B. – M., 1972-1973; Platon. Sobraniye sochineniye v 4-x.t. T. 2. – M., 1993; Aristotel. Sochineniye v 4-t. T. 4. – M., 1984; Siseron M.T. Izbrannyye sochineniya / Per. s latin. – M.: Xudojstvennaya literatura, 1975.

⁵ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. T. 1. – T.: Fan, 1968; Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. 190.B. – T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti, 1993; Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1971; Ibn Sino (Avisenna). Izbrannyye filosofskiyе proizvedeniya. – M.,1980; Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk. – T.: Adolat, 1997.

⁶ Makiavelli N. Gosudar. Rassujdeniya o pervoy dekahe Tita Liviya. O voyennom iskusstve. – Minsk: Popuri" 1998; Gobbs T.O. Grajdanine. C. kn. T. 11.B. – M., 1989. – S. 270-505; Levafan ili materiya, forma vlast gosudarstva serkovnogo i grajdanskogo. T. 21.C. – M., 1991; Lokk D. Izbrannyye proizvedeniya. – M., 1960; Russo Jan Jak. Traktaty. – M.,1969.

⁷ Bjezinskiy Z.B. Globalnoye gospodstvo ili globalnoye liderstvo? – M.: Mejdunarodnyye otnosheniya, 2004; Toffler E. Tretya volna. – M.: AST, 1999; Fukuyama F. Silnoye gosudarstvo. Upravleniye i mirovoy poryadok. – M.: AST, 2006; Xantington S. Stolknoveniya sivilizatsii. – M., 2005; shu muallifniki: Kto my vesovyye amerikanskoy natsionalnoy identichnosti. – M.: AST, 2004; Toynbi A. Dj. Sivilizatsiya pered sudom istorii. Sbornik. – M.: Rudolf, 2002; Byukenen P.J. Smert zapada. Perevod s angliyskogo A.Sergeeva. – M., 2004; Koleman D.J. Komitet 300. Tayne mirovogo pravitelstva. – M.: Vityaz, 2000.

qashshoqlashuvi turganligini ko'rsatganligidir.

Globalashuv sharoitida shaxs dunyoqarashining shakllanishini belgilab beruvshi axborotlashgan jamiyat, axborot tahdidi va ijtimoiy tarmoqlar va ularning inson ongiga ta'siri borasida mamlakatimiz olimlari S.Otamuratov, J.Yaxshilikov, Sh.Paxrutdinov, Q.Nazarov, B.To'ychiyev, I.Ergashev, N.Jo'rayev, A.Muminov, M.Quronov, Sh. G'oyibnazarov, R.Samarov, V.Qo'shqorov, O.Musayev, Sh.Turayev va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar⁸. Bu mualliflarning qarashlarini beshinchi guruhga kiritish mumkin. Ularning asarlarida globalashuv tushunchasi, axborot xavfsizligi, uning milliy ma'naviyatga, shaxs dunyoqarashiga ta'siri masalalari, millatlararo munosabatlar va ularning rivojlanish jarayonlari kabi masalalar ochib berilgan. Jumladan, jamiyat barqarorligini ta'minlash bo'yicha siyosiy fanlar doktori, professor Sh.I.Paxrutdinov o'zini "tahdidbardosh jamiyat" modelini ilgari surgan. Unda muallif "iqtisodiy barqarorlikka erishish" mezoni modelning tag asosini tashkil etsa, "ma'naviy immunitet" mezoni esa, modelning ustki ta'sirlarga javob beruvchi qismi vazifasini bajaradi, deya ta'kidlagan bo'lsa, falsafa fanlari doktorlari, professorlar, Q.Nazarov, Sh.Turayevlar shaxs, ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "Ommaviy madaniyat" omilini ilmiy jihatdan tadqiq etgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning asarlarida va ilmiy tadqiqotlarida globalashuv sharoitida ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning samarali mexanizmlari bilan bog'liq jarayonlar bevosita va bilvosita maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining ALM-202403110247-sonli "Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalash bo'yicha o'quv va ilmiy-metodik qo'llanmalar, uslubiy tavsiya, ma'rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish" maqsadli-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi globalashuv sharoitida ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash, ta'sir etish imkoniyatlari va ularning oldini olishdagi mavjud muammolarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"mafura", "mafkuraviy immunitet", "ma'naviy tarbiya" kabi tushunchalarning ta'riflari, mazmuni va mohiyatini ochib berish;

⁸ Otamuratov S. Globalashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008; shu muallifniki: Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. Ikkinchi nashr. – T.: O'zbekiston, 2015; Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T., 2008; Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch: Maqola va ma'ruzalar to'plami. – T.: Akademiya, 2001; G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: O'zbekiston, 2012; Muminov A.G. Natsionalnaya politika nezavisimogo Uzbekistana i puti ix realizatsii v duxovno-kulturnoy sfere (teoriya i praktika). – T., 1999; Musayev O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – T.: Istiqloq nuri, 2016.136.B.

jamiyat a'zolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar, yoshlarda mafkuraviy immunitetni yuksaltirishga oid madaniy, tarbiyaviy va axborot mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamiyatda ma'naviy tarbiya jarayonlarini kuchaytirishda ta'lim tizimining o'rni va madaniyat va san'at mafkuraviy immunitetni shakllantirish va milliy o'zlikni saqlash omili ekanligini asoslash;

ma'naviy va mafkuraviy tarbiya kontekstida diniy va axloqiy qadriyatlarning ahamiyati, ommaviy axborot vositalarining o'rni, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy va mafkuraviy tarbiyasiga ta'sirini ochib berish hamda ma'naviy-ma'rifiy omillar orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy-tarbiyaviy omillarning o'rnini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning predmetini jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy-tarbiyaviy omillarning o'rnini asoslash jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning milliy sigmentini rivojlantirish va unda "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasining rolini ochib berish tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, obyektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, sotsiologik so'rov kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"mafkuraviy manfaatdorlik" tushunchasi mafkuraviy immunitetning shakllanishi va yemirilishi jarayonlarini izohlashda ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida konseptual jihatdan asoslanib, ma'naviy-tarbiyaviy reabilitatsiya tamoyillari (izchillik, uzviylik va universallik)ning bazaviy motivatsion komponenti, mafkuraviy immunitetni tiklashning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'lishi ilmiy asoslangan;

jamiyat a'zolarida ijtimoiy safarbar etishning ixtiyoriy-manfaatdorlik mexanizmi samarali ekanligi isbotlanib, u shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va mafkuraviy immunitet darajasini mustahkamlashi ochib berilgan;

jamiyat mafkuraviy barqarorligini ta'minlashda "milliy segment - milliy kontent - virtual hamkorlik - virtual nazorat - mafkuraviy manfaatdorlik" tizimining tarkibiy elementlari o'rtasidagi sinergetik bog'liqlik va kommunikativ o'zaro ta'sir jarayonlarini ma'rifiy-tarbiyaviy omillar bilan integratsiyalash, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi ijtimoiy-falsafiy konseptual asos ekanligi isbotlangan;

milliy madaniyatni global axborot maydonida raqobatbardosh sub'ektga aylantirish, brendlash va madaniy diplomatiya orqali ma'naviy ta'sirni kengaytirishga yo'naltirilgan proaktiv strategiya ma'naviy tarbiyaning teleologik va aksiologik mezonlari qamrovida mustaqil ilmiy yo'nalishlar sifatidagi funksiyalari tizimlashtirilib, globallashtirish sharoitida milliy ma'naviy

ta'sirni kengaytirishga xizmat qiluvchi adaptiv va innovatsion yondashuvlar ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Globalashuv sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usullarini ishlab chiqish. Tadqiqot da globalashuv jarayonining ma'naviy va mafkuraviy jihatlarini tahlil qilinib, zamonaviy xavf-xatarlar aniqlangan.

Axborotlashuv sharoitida yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash va ularda o'z madaniyatini, an'analari va qadriyatlarini hurmat qilishni rivojlantirishga qaratilgan takliflar. Buning uchun yangi o'quv dasturlari, metodikalar va ma'naviy-axloqiy ta'lim berish tizimlari ishlab chiqilgan.

Bugungi kundagi tahdidlarning turli xil shakllari mavjudligidan kelib chiqib ularni tizimlashtirishga oid konseptual g'oyalar ishlab chiqilgan, namoyon bo'lish jarayonlari aniqlangan va ularni bartaraf etish omillari sifatida, yoshlar o'rtasida ijtimoiy va madaniy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamoaviy dasturlar, ijtimoiy faollikni oshirish, o'ziga xos moral yondoshuvlar shakllantirilgan..

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus va xorijiy mamlakatlar jurnallarida chop etilgan maqolalar, xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tobora kuchayib borayotgan globalashuvning milliy ma'naviyatning yemirilishiga nisbatan ta'sirini aniqlashni takomillashtirishga doir fundamental ilmiy xulosalar va takliflardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati globalashuv sharoitida milliy ma'naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlarning oldini olishga doir davlat tomonidan ishlab chiqiladigan dasturiy vazifalarni belgilashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining yana bir amaliy ahamiyati Respublika ma'naviyat va ma'rifat ilmiy markazining faoliyatida millatimiz va xalqimizni tanishtirish, yuzaga kelgan tahdidlardan, ayniqsa, yoshlarimizda ularga nisbatan g'oyaviy hamda ma'naviy immunitetni shakllantirish borasidagi tashviqot va targ'ibot faoliyatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishda ma'naviy-tarbiyaviy omillarning o'rniga oid olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

“mafkuraviy manfaatdorlik” tushunchasi mafkuraviy immunitetning shakllanishi va yemirilishi jarayonlarini izohlashda ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida konseptual jihatdan asoslanib, ma'naviy-tarbiyaviy rehabilitatsiya tamoyillari (izchillik, uzviylik va universallik)ning bazaviy motivatsion komponenti, mafkuraviy immunitetni tiklashning samarali

mexanizmi sifatida namoyon bo'lishiga oid xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024 yilda 4-yanvarda tasdiqlangan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning III-yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" yo'nalishi 20-band "Mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy sohani yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarmiz, halollik, birdamlik kabi tuyg'ularni kuchaytirish, aholida boqimandalik va jinoyatchilikka moyillikni oldini olish"ga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan dasturlarni tayyorlashda nazariy asos sifatida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 05-apreldagi 10/173-son dalolatnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan dasturlarning zamonaviy yondashuvlar asosida tayyorlanishiga xizmat qilgan;

jamiyat a'zolarida ijtimoiy safarbar etishning ixtiyoriy-manfaatdorlik mexanizmi samarali ekanligi isbotlanib, u shaxsning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va mafkuraviy immunitet darajasini mustahkamlashiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 30-oktyabrdagi 01-10/169-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Yoshlar ishlari agentligining mahalladagi yoshlar yetakchisining namunaviy lavozim yo'riqnomasi"ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil 01-apreldagi 4-16-21-1680-son dalolatnomasi). Natijada, mahalladagi yoshlar yetakchilari faoliyatini samarali tashkil qilishga xizmat qilgan;

jamiyat mafkuraviy barqarorligini ta'minlashda "milliy segment - milliy kontent - virtual hamkorlik - virtual nazorat - mafkuraviy manfaatdorlik" tizimining tarkibiy elementlari o'rtasidagi sinergetik bog'liqlik va kommunikativ o'zaro ta'sir jarayonlarini ma'rifiy-tarbiyaviy omillar bilan integratsiyalash, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi ijtimoiy-falsafiy konseptual asos ekanligiga oid xulosalardan O'zbekiston Yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash Markazining 2025-yilgi ishchi dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash Markazining 2025-yil 07-apreldagi 03-son dalolatnomasi). Mazkur taklif va tavsiyalar Markazning yoshlar bilan ishlash yo'nalishida yoshlarni globallashtirishning milliy ma'naviyatga o'tkazayotgan ta'sirini aniq tushunishga va milliy o'zligini asrab qolishga bo'lgan faolligini oshirishga katta hissa qo'shgan;

milliy madaniyatni global axborot maydonida raqobatbardosh sub'ektga aylantirish, brendlash va madaniy diplomatiya orqali ma'naviy ta'sirni kengaytirishga yo'naltirilgan proaktiv strategiya ma'naviy tarbiyaning teleologik va aksiologik mezonlari qamrovida mustaqil ilmiy yo'nalishlar sifatidagi funksiyalari tizimlashtirilib, globallashtirish sharoitida milliy ma'naviy ta'sirni kengaytirishga xizmat qiluvchi adaptiv va innovatsion yondashuvlarga oid taklif va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va

ma'rifat markazining 2024 yilda 4-yanvarda tasdiqlangan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi"ning III-yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" yo'nalishi 21-band "Obod mahalla-yangi ma'naviy makon" amalga oshirish bo'yicha tashkil etilgan ishchi guruh "Yo'l xaritasi"ni tuzishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 05-apreldagi 10/173-son dalolatnomasi). Natijada, mahallarda amalga oshirilgan tadbirlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy material chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 162 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi, vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **"Jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishga doir nazariy-metodologik asoslar"** deb nomlangan birinchi bobida jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirishga doir nazariy-metodologik asoslar mavzusi ijtimoiy va madaniy tadqiqotlar doirasida muhim ahamiyatga ega. Mafkuraviy immunitet — bu jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va madaniy kuchini bildirib, uning tashqi yoki ichki mafkuraviy ta'sirlarga (masalan, mafkuraviy manipulyatsiyalar, ekstremizm, radikalizm) qarshi turish qobiliyatini shakllantiradi. Bu jarayonda jamiyatning ichki barqarorligi, ma'naviy qadriyatlar, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy institutlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda demokratik islohotlar davrida milliy g'oya va mafkura, mustaqillik g'oyalarini aholining keng qatlamlari ongiga singdirish, ta'lim, madaniyat, san'at, ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'ibotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

tomonidan yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari o'rniga e'tiborni oshirdi. Demokratik islohotlar jarayonida "... bugungi yashin tezligida o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochish bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar qancha-qancha oilalar, mamlakatlar boshiga og'ir kulfatlarni solayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Ba'zi mamlakatlardagi g'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqdalar. Bunday keskin va tahlikali sharoitda beparvo va loqayd bo'lish qanchalik og'ir bo'lmasin, ochiq aytishga majburiyatimiz – bu xiyonat, jinoyat bilan barobardir"⁹. Ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'ygacha bu masalada hushyorlik va ogohliklarini oshirishlari lozim. Yoshlarning qalbiga quloq solish, ijtimoiy muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berish, bu vazifalarni amalga oshirishda milliy qadriyat va an'analarga, ajdodlardan qolgan boy merosga tayanish zarur. Shundagina yoshlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini mustahkamlash, ularni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalash orqali ma'naviy olamini yuksaltirish mumkin.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi har bir insonning yuqori ma'naviyatga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ijtimoiy falsafiy tadqiqotlar jamiyatda ma'naviyat borasida olib borilayotgan jarayonni o'rganish va uni yanada takomillashtirishda muhim omil sanaladi. Zero, mamlakatning ravnaqi, shaxslarning yuksak ma'naviyatliligi, barkamolligi bu boradagi muammolar yechimini topishda ilmiy yondashishni talab qiladi. Chunki "ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi"¹⁰.

Ma'naviyat haqida aytilgan ushbu tavsiflar botiniy qudratga aloqador bo'lib, uni boshqa, ikkilamchi hodisalardan, moddiy voqelik unsurlaridan keltirib chiqarishga urinish muammoni chuqur anglamaslik natijasidir. Endilikda, mustaqil taraqqiyotdek buyuk voqelikning vujudga kelishi uchun har bir insondan alohida jasorat, cheksizlikka tutashuvchi botiniy kuch, islohotlarda faol ishtirok etishni talab etmoqda.

Forobiy bu bilan jamiyatda shunday insonlar ko'paysa, ma'naviyat qaror topadi va bunday davlat taraqqiyotga yuz tutadi, bu jamiyatda barcha insonlar ham rohat-farog'atda yashaydi, degan purmano fikrni ilgari suradi. Ushbu g'oya bugungi kunga ham tatbiq qilinsa, shaxsda shu fazilatlar o'z mujassamini topsa, davlatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida bundan ham ko'proq yaratuvchilik, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish mumkin

⁹ Мирзиёев Ш.М. Фарғона вилояти сайловчилари билан учрашувдаги маърузадан. «Фарғона ҳақиқати» газетаси, 2016 йил 5 ноябрь. 89-сон.

¹⁰ Алимова Д. Инсоният тарихи – ғоя ва мафкуралар тарихидир. – Тошкент: Ижод дунёси, 2001. – Б.81.

bo'ladi¹¹.

Ma'naviyat kechagina vujudga kelgan tushuncha emas. Ushbu tushuncha insoniyat paydo bo'lib, o'zini anglab-anglamay yashagan paytdan boshlab namoyon bo'la boshladi. Chunki insoniyat jamoaviylashishga va ijtimoiylashishga va barkamollikka intilib, unga erishgan.

Ma'naviyat jamiyat, millat, xalq hayotida muhim o'rin egallar ekan, bu tushunchani ijtimoiy hodisa va ilmiy tushuncha sifatida har tomonlama o'rganish zarur.

Fuqarolik jamiyati shakllanishi davrida "ma'naviyat" deya nomlanayotgan ushbu atama sifatida ishlatilishida bir necha qarashlar, farazlar mavjud bo'lib, uning kelib chiqishi va shakllanishida islom falsafasi, tasavvuf ta'limoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom madaniyati tadqiqotchilarining ilk namoyondalaridan biri Vosil ibn Ato va Amr ibn Ubayd – Qur'onni sharhlash ilmi, ya'ni "ilm at-tavsir"ga asos solib, unda narsa va hodisalarning, jarayonlarning, tabiat va jamiyat, hattoki Xudoning mohiyati haqidagi ta'limotni "ma'na" deb ataganlar. Mu'taziliylar Alloh o'z bandasiga o'xshab ko'rish, eshitish, gapirish xususiyatlariga, jismaniy tuzilishiga ega bo'lishi mumkin emas, bu Xudoning mushtarakligi va yakkaligiga – tavhidiya talabiga zidligini ta'kidlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, islom falsafasida "ma'naviyat" atamasining paydo bo'lishida mu'taziliylarning ham xizmati bor, albatta.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizning ongi va qalbini turli zararli ta'sirlardan, g'arazli g'oyalardan himoya qilish uchun, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim"¹².

Mafkura - muayyan g'oyalar, qarashlar, qadriyatlar tizimidir. U jamiyatning ideal maqsadlarini belgilaydi va fuqarolar ongiga ta'sir qiladi. Mafkuraviy immunitet esa - insonning turli g'oyaviy ta'sirlarga qarshi chidamliligi, o'z pozitsiyasini saqlab qolish qobiliyati. Ma'naviy tarbiya - shaxsning axloqiy, intellektual va madaniy jihatdan rivojlanishini ta'minlovchi omillar majmuasidir.

Shu bilan birga "Mafkura" – bu muayyan ijtimoiy guruh, sinf yoki jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlari va maqsadlarini o'z ichiga olgan g'oyalar majmuasidir. Mafkura insonning hayotga bo'lgan munosabatini shakllantiradi, uning fikrlash uslubini, qadriyatlar tizimini belgilaydi.

Falsafa va siyosatshunoslikda "mafkura" tushunchasi teran ma'nolarni qamrab oladi. I.Sayfnazarov ta'kidlaganidek, "mafkura – jamiyatda muayyan tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy ehtiyojlar asosida shakllangan g'oyaviy tizimdir"¹³.

Mafkuraviy immunitet jamiyat a'zolarini mafkuraviy tahdidlardan

¹¹ Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2012. – Б. 41-42.

¹² Абдурахмонов Б., Жўраев Н. «Мафкура ва ёшлар: муаммо ва ечимлар». – Тошкент: Иқтисод, 2020. 56-74 б.

¹³ Саифназаров И. «Ижтимоий фалсафа ва мафкура», Тошкент: Фан, 2018. – 324 б.

himoya qilish va ularni ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni saqlashga qaratilgan, aqlli va ma'naviy kamolotga yo'naltirishga yordam beradi. Bu immunitetning shakllanishi, masalan, mafkuraviy manipulyatsiyalar va radikalizmga qarshi samarali yondoshuvlarni talab qiladi. Agar jamiyatda mafkuraviy immunitet yaxshi shakllangan bo'lsa, u mafkuraviy ta'sirlarga qarshi samarali qarshilik ko'rsata oladi. Bu, fikr yuritishning erkinligi, to'g'ri ma'lumotni saralash qobiliyati, axloqiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Mafkuraviy immunitet jamiyat a'zolarining o'z pozitsiyalarini aniqlash va yomon ta'sirlarga qarshi tura olishlariga yordam beradi.

A.Umrzoqov o'z tadqiqotlarida shunday yozadi: "Mafkuraviy immunitet bu – shaxsning o'z milliy g'oyasi, tarixiy xotirasi va ma'naviy asoslariga tayana olgan holda tashqi ta'sirlarga tanqidiy munosabat bildirish qobiliyatidir"¹⁴.

Mafkuraviy immunitetning mazmuni shundan iboratki, u jamiyat a'zolarini yo'nalishsiz, jamiyatga xavf soluvchi mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishga yordam beradi. Bu, masalan, mafkuraviy manipulyatsiyalar, har qanday radikal va ekstremistik g'oyalarga qarshi ishlash uchun kerakli kuch va qobiliyatlarni shakllantirishni qamrab oladi. Bu immunitetning shakllanishi uchun ta'lim, ijtimoiy va madaniy ta'limotlar, axloqiy tarbiya va ommaviy axborot vositalari muhimdir.

Ma'naviy tarbiya – shaxsda axloqiy, estetik, fuqarolik va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyatning muhim yo'nalishidir. Bu jarayon orqali insonda Vatanga muhabbat, insoniylik, diyonat, madaniyat va boshqa yuksak qadriyatlar qaror topadi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jamiyatda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, yoshlarni sof ma'naviyat ruhida tarbiyalash – islohotlarimizning bosh maqsadlaridan biridir"¹⁵.

Mafkuraning hayotdagi amaliy ifodasi sifatida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasining amaliyotga tadbiiq etilayotganligi va katta-katta yutuqlarga erishayotganligini misol qilib keltirish mumkin. Shu bois, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat taraqqiyotining strategiyasi aniq mafkuraviy poydevorga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi nafaqat siyosiy dastur, balki ijtimoiy-ma'naviy dastur hamdir.

Bu g'oya asosida ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Masalan, tarix darslarida o'zlikni anglash, buyuk ajdodlar merosini o'rgatish orqali yoshlarda iftixor va vatanparvarlik hissi uyg'otiladi.

Mafkura – jamiyatni birlashtiruvchi, unda umummilliy maqsad va g'oyalarni shakllantiruvchi asosiy dunyoqarash tizimidir. U millatning ongi,

¹⁴ Умрзоқов А. «Мафкуравий иммунитет ва ёшлар онги», Жамият ва бошқарув, 2022, №2. – 70–75-б.

¹⁵ Мирзиёев Ш.М. «Миллий тараққиёт йўлимизда маънавиятнинг ўрни», Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. – 34 б.

ruhi va istiqboliga yo'nalish beradi. Mafkura jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligini oshiradi, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Mafkuraviy immunitet esa shunday mafkuraviy ta'sirlar sharoitida inson va jamiyatning ichki himoya tizimi hisoblanib, u axborot va g'oyalar oqimida yo'nalishni belgilash, haqiqiyini soxtadan ajratish, milliy g'oyani ustuvor deb bilish qobiliyatini anglatadi. U har bir shaxsning mafkuraviy barqarorligini ta'minlab, yot g'oyalardan himoya qiladi.

Ma'naviy tarbiya esa aynan shu immunitetni shakllantiruvchi asosiy omil bo'lib, shaxsda axloqiy prinsiplar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, haqiqat va adolatga intilishni rivojlantiradi. Ma'naviy tarbiya yosh avlod ongida milliy g'oya, insonparvarlik, ma'rifiy yuksalishga intilish ruhini shakllantiradi.

Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini chuqur anglash va ular asosida tarbiya tizimini takomillashtirish orqali jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash mumkin. Bu esa milliy xavfsizlikning g'oyaviy poydevorini yaratish, yoshlar ongini yot ta'sirlardan himoya qilish, fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida muhim qadam hisoblanadi.

Dissertasiyaning **“Ma'naviy-tarbiyaviy omillar va ularning mafkuraviy immunitetga ta'siri”** deb nomlangan ikkinchi bobida jamiyatda mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash, yot g'oyalar va axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashishning asosiy sharti – shaxs ongida ma'naviy va axloqiy jihatdan barkamol immunitetni shakllantirishdir. Bu jarayonda ma'naviy-tarbiyaviy omillar hal qiluvchi o'rin tutadi. Zero, ma'naviy tarbiya – insonning ichki dunyosi, e'tiqodi, fe'l-atvori va faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar – yosh avlodni jahon andozalari darajasida bilimli qilish bilan birga, ularni ma'naviy jihatdan barkamol, mafkuraviy jihatdan yetuk fuqaro sifatida tarbiyalashga ham qaratilgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Ta'lim tizimining bosh maqsadi – nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli va fuqarolik mas'uliyatini anglaydigan avlodni tarbiyalashdir”¹⁶.

Tarbiya va ma'naviyat – bu faqat jamiyatdagi axloqiy qoidalar yoki an'analar majmuasi emas, balki u shaxsning hayotiy nuqtayi nazarini, dunyoqarashini, milliy o'zligini va eng muhimi, mafkuraviy bardoshini mustahkamlovchi ma'rifiy mexanizmlar tizimidir. Ayniqsa, bugungi axborot xurujlari davrida yoshlarni g'oyaviy jihatdan muhofaza qilish, ularning ongida milliy g'oya, vatanparvarlik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish uchun tarbiya va ma'naviyatning ahamiyati beqiyosdir.

Ma'naviy-tarbiyaviy muhitda shakllangan inson ongli, haqiqatparvar, milliy qadriyatlarga sodiq va yot ta'sirlarga qarshi mustaqil fikr yuritish

¹⁶ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб,янги босқичга кўтарамиз. 1-том.-Тошкент: Ўзбекистон, 2017.- 205 б.

qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday shaxs jamiyatning g'oyaviy barqarorligi va ma'naviy sog'lomligi uchun tabiiy himoya vositasiga aylanadi. Shu bois, ushbu bobda ma'naviy-tarbiyaviy omillarning mazmuni, ularning mafkuraviy immunitet shakllanishidagi o'rni, ahamiyati va amaliy ta'sir mexanizmlari kompleks tahlil qilinadi.

"Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", – deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi"¹⁷

Ma'naviy tarbiya jamiyat taraqqiyotining ma'naviy asosi, inson kamolotining asosiy sharti hisoblanadi. Jamiyat a'zolarining axloqiy, fe'l-atvor va g'oyaviy barqarorligini ta'minlashda ta'lim tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki insonda dunyoqarash, hayotiy maqsad, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi tuyg'ular avvalambor ta'lim muassasalarida shakllanadi.

Ta'lim – faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsni g'oyaviy-axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalashning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bugungi axborot oqimi shiddatli davrda ma'naviy tarbiyani kuchaytirish orqali yoshlarning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan tezkor siyosiy, axborot va madaniy o'zgarishlar sharoitida shaxsning g'oyaviy barqarorligi, axloqiy kamolotga intilishi va ma'naviy yetukligi milliy taraqqiyotning strategik omillaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirish, ya'ni ularning yot g'oyalarga qarshi tanqidiy munosabatda bo'lishi, milliy g'oyalarga sadoqati va fuqarolik mas'uliyatini teran anglash qobiliyatini tarbiyalash jamiyat oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Bu borada ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Chunki ta'lim faqatgina bilim berish vositasi emas, balki shaxsni tarbiyalash, unda ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy-axloqiy mas'uliyatni shakllantirishning asosiy ijtimoiy instituti hisoblanadi. Ayniqsa, bolalikdan boshlab shaxsda milliy o'zlik, vatanparvarlik, insoniylik, mehr-oqibat kabi tuyg'ularni shakllantirishda maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarining ahamiyati kattadir.

Abdulla Avloniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"¹⁸.

Sovet davrida ta'lim markazlashgan va ideologik asoslangan bo'lsa-da ma'naviyatdan xoli "sho'rolar tarbiyasi" orqali komsomol, internatsionalizm va "sotsialistik insoniyat" g'oyasi singdirilgan. Milliy va diniy tarbiya kamaytirilgan, ammo xalq orasida oila va an'analar orqali

¹⁷ Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi. <https://sammuslim.uz/press/seminars-briefings/tarbiya-qancha-mukammal-bolsa-xalq-shuncha-baxtli-yashaydi>

¹⁸ Boyxo'rozov Sh. "Tarbiya yo hayot- yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" <https://samviib.uz/uz/news/tarbiya-yo-hayot-yo-mamot-yo-najot-yo-halokat-yo-saodat-yo-falokat-masalasidir>

ma'naviy qadriyatlar saqlanib qolgan.

Maktab ta'limi va tarbiyasida kechayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, tarixan qisqa vaqtda ulkan yutuqlar qo'lga kiritilganiga guvoh bo'lamiz. Ularni maktablarga bepul taqdim etish uchun davlat mablag'lari jalb etildi. Pedagoglar jamoasi va yoshlar, o'quv-qo'llanmalar bilan ta'minlandi, zamonaviy darsliklar, binobarin, bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatishning qonuniy asoslari, huquqiy mexanizmlarini yaratibgina qolmay, ular hayotga tatbiq etildi. «Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, avvalo tarbiya beradigan tarbiyachilarning bilimini, dunyoqarashini rivojlantirish vazifasi turadi. Tarbiyachilar yoshlarni ma'naviy barkamol o'sishlariga ko'maklashadilar. Ta'limni zamonaviy qadriyatlar bilan boyitib borishda o'qituvchilarning malakasi, ijodiy imkoniyati muhim ahamiyatga ega.

Globalashuv, axborot texnologiyalari va madaniy assimilyatsiya jarayonlari shiddat bilan kechayotgan hozirgi zamonda jamiyatlarning g'oyaviy barqarorligini ta'minlash, milliy o'zligini saqlash va yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi immunitet yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, ayniqsa, madaniyat va san'atning o'rni beqiyosdir. Zero, madaniyat har bir xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ma'naviy tafakkurini ifodalovchi uzviy jihatlar majmuasidir. U faqat estetik tuzilma emas, balki jamiyatning g'oyaviy, ma'naviy va axloqiy barqarorligini ta'minlovchi strategik kuch hisoblanadi.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Macalan, Forobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, "oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi", bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi. Uning ta'kidlashicha, «madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar»¹⁹. Alisher Navoiy yetuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezonini deb insonparvarlik g'oyalariga amal qilishlikni tushuntirdi. Madaniyat – umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Masalan, san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va boshqalar barchaga tegishlidir.

Milliy qadriyat, urf-odat, an'ana va marosimlarning yoshlar tomonidan o'zlashtirilishi, an'analarning davom ettirilishi, ajdodlar qadrli insoniy xulq

¹⁹ Abu Nasr Farobiy Fozil odamlar shahri. Toshkent. 2021, "Sharq" – 18 b.

atvorga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlarni o'zida shakllantirishga, binobarin jamiyat ma'naviyati rivojiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Aksincha, madaniy-ma'naviy meros, an'ana va urf odatlarga nigilistik munosabatlarning yuzaga kelishi vorisiylikning buzilishiga jamiyatning ichdan yemirilishiga olib keladi. Milliy qadriyatlar orqali yoshlar xulq-atvoriga ijobiy ta'sir etish uchun adabiyot va san'atning imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanish kerak. Chunki adabiyot va san'at shaxs didining noziklashuviga dunyoqarashiga, uning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan qudratli omildir.

Bugungi murakkab va ziddiyatli global axborot muhitida jamiyatda ma'naviy-axloqiy barqarorlikni ta'minlash, shaxsda g'oyaviy ong, milliy identifikatsiya va mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xurujlari, yot mafkuraviy ta'sirlar, madaniy assimilyatsiyaga oid tahdidlar fonida shaxsning ichki dunyosi, axloqiy pozitsiyasi va e'tiqodi uning jamiyatda tutgan o'rni va barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu borada diniy va axloqiy qadriyatlar shaxs va jamiyat ma'naviyatining eng muhimi tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Diniy qadriyatlar insonning qalbini tarbiyalaydigan, uni ezgulik, poklik va insonparvarlikka yo'naltiradigan ruhiy-ma'rifiy kuch hisoblanadi. Axloqiy qadriyatlar esa jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi, shaxsning fe'l-atvori va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantiruvchi ijtimoiy normalar tizimidir. Ma'naviy va mafkuraviy tarbiya kontekstida ushbu qadriyatlar shaxs ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, milliy o'zlikni anglashda va yot g'oyalarga qarshi fikriy bardoshni rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng diniy-ma'rifiy merosni tiklash, axloqiy qadriyatlarni hayotga tatbiq etish, islom sivilizatsiyasidagi ma'naviy g'oyalarni yoshlar tarbiyasiga singdirish bo'yicha keng ko'lamli davlat siyosatlarini amalga oshirildi. Bu jarayon yoshlarda vatanga muhabbat, insonparvarlik, adolat, sog'lom e'tiqod va ruhiy bardosh kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu paragrafda ma'naviy va mafkuraviy tarbiyaning asosiy mazmunida diniy va axloqiy qadriyatlarning tutgan o'rni, ularning tarixiy ildizlari, zamonaviy ahamiyati hamda yosh avlod ongida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi strategik vazifalari ilmiy va tahliliy jihatdan yoritib beriladi.

Hozirgi global dunyodagi mafkuraviy tahdidlar (ekstremizm, individualizm, hedonizm, madaniy boshboshdoqlik) shaxs ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu xatarlar insonni ma'naviy bo'shliqqa tortadi. Ana shunday sharoitda diniy va axloqiy qadriyatlar fikriy muqovimatni ta'minlaydi.

